

JINOYAT QONUNINING HUDUD BO'YICHA AMAL QILISH USLUBIYOTI

Sanetullaeva Muslihimaga Nagmetulla qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat qonunchiligini qo'llash nazariyasi va
amaliyoti Mutaxassisligi magistri

E-mail: muslihimasanetullaeva41@gmail.com

***Annotatsiya:** mazkur maqolada jinoyat qonunining hudud bo'yicha amal qilish uslubiyloti tahlil etiladi. Yakunda, muallif tomonidan mazkur institutni rivojlantirish uchun tegishli xulosa va takliflar beriladi.*

***Kalit so'zlar:** jinoyat, qonunchilik, uslubiylot, qonun.*

ТЕРРИТОРИАЛЬНОЕ ПРИМЕНЕНИЕ УГОЛОВНОГО ПРАВА

Санетуллаева Муслихима Нагметулла кизи

Ташкентский государственный юридический университет, магистр по
специальности «Теория и практика применения уголовного права»

Электронная почта: muslihimasanetullaeva41@gmail.com

***Аннотация:** в статье анализируется методика применения уголовного закона по территории. В заключение автор приводит соответствующие выводы и предложения по развитию данного института.*

***Ключевые слова:** преступление, законодательство, методология, право.*

METHODOLOGY OF THE APPLICATION OF CRIMINAL LAW BY TERRITORIAL

Sanetullaeva Muslihimaga Nagmetulla kizi

Tashkent State University of Law, Master of Science in Theory and Practice of the
Application of Criminal Law

E-mail: muslihimasanetullaeva41@gmail.com

Annotation: *this article analyzes the methodology of the application of criminal law by territory. In conclusion, the author gives relevant conclusions and proposals for the development of this institution.*

Keywords: *crime, legislation, methodology, law.*

Mazkur tezisda jinoyat qonunining amal qilish qilish masalalari bo'yicha va asosan jinoyat qonunining hudud bo'yicha amal qilishi bilan bog'liq tushunchalar haqida so'z yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi – bu qonun chiqaruvchi organ tomonidan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi hukumati jinoyat qoidalarini o'z ichiga olgan hujjat bo'lib, jinoyat va jazo harakatining mohiyatidir. Ushbu kodeks 1994-yil 22-sentyabrda tasdiqlangan va 1995-yil 1-apreldan amalga kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi 2 qismdan — umumiy qism va maxsus qismdan iborat, ular yagona jinoyat qonunini tashkil etadi. Umumiy qismda jinoyat qonunining umumiy qoidalar, javobgarlik asoslari, qilmishning jinoyatligini istisno etadigan holatlar, jazo va uni tayinlash, javobgarlikdan va jazodan ozod qilish, voyaga yetmaganlar javobgarligining xususiyatlari, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari belgilab berilgan. Maxsus qismda jinoyatlarning turlari va ular uchun tegishli jazolarni tayinlaydigan me'yorlar ko'rsatilgan.

Umumiy qismda Maxsus qismdagi huquqiy me'yorlarni amalda tadbiq qilish yo'llari bayon etilgan.

Jinoyat Kodeksning II bobi "Kodeksning amal qilish doirasi" deb nomlanib, ushbu bob 11, 12-moddalari kodeksning hudud bo'yicha amal qilishi bilan bog'liq bo'lib hisoblanadi. 11-moddada Kodeksning O'zbekiston hududida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan amal qilishi bo'icha qoidalar keltirilgan bo'lsa, 12-moddada Kodeksning O'zbekiston hududidan tashqarida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan amal qilishi to'g'risida qoidalar keltirilgan. JK 11-moddasiga to'xtaladigan bo'lsak, **O'zbekiston hududida** jinoyat sodir etgan shaxs Jinoyat Kodeksi bo'yicha javobgarlikka tortiladi.

Qilmish:

a) O'zbekiston hududida boshlangan, tamomlangan yoki to'xtatilgan bo'lsa;

b) O'zbekiston hududidan tashqarida sodir etilib, jinoiy oqibati esa, O'zbekiston hududida yuz bergan bo'lsa;

v) O'zbekiston hududida sodir etilib, jinoiy oqibati esa, O'zbekiston hududidan tashqarida yuz bergan bo'lsa;

g) bir necha qilmishlardan iborat yoki boshqa qilmishlar bilan birgalikda sodir etilgan bolib, uning bir qismi O'zbekiston hududida yuz bergan bo'lsa, O'zbekiston hududida sodir etilgan jinoyat deb topiladi

O'zbekiston bayrig'i ostidagi yoki O'zbekiston portida ro'yxatga olingan havo, dengiz yoki daryo kemasida O'zbekiston hududidan tashqari bo'lib, chet el davlati hududi hisoblanmagan joyda jinoyat sodir etilsa, bunday jinoyat uchun

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi bo'yicha javobgarlikka tortiladi. Amaldagi qonunlar, xalqaro shartnomalar yoki bitimlarga muvofiq chet el fuqarolarining javobgarligi to'g'risidagi masala O'zbekiston Respublikasi sudlariga tegishli bo'lmasa, ular O'zbekiston Respublikasi hududida jinoyat sodir etgan holda, xalqaro huquq normalariga muvofiq hal qilinadi.¹

Shuningdek, Jinoyat Kodeksi 12-moddasi ham qonunning hudud bo'yicha amal qilishi bilan bog'liq bo'lib, undga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek O'zbekistonda doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, basharti boshqa davlat hududida sodir etgan jinoyat uchun o'sha davlat sudining hukmi bilan jazolangan bo'lmasalar, ushbu Kodeks bo'yicha javobgarlikka tortiladilar.

O'zbekiston fuqarosi chet el davlati hududida sodir etgan jinoyati uchun, agar xalqaro shartnomalar yoki bitimlarda boshqacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, ushlab berilishi mumkin emas.

Chet el fuqarolari, shuningdek O'zbekiston hududida doimiy yashamaydigan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston hududidan tashqarida sodir etgan jinoyatlari uchun faqat xalqaro shartnomalar yoki bitimlarda nazarda tutilgan hollardagina ushbu Kodeks bo'yicha javobgarlikka tortiladilar.²

Jinoyat qonunining hudud bo'yicha amal qilishi O'zbekiston Respublikasida hududiylik prinsipi bilan tartibga solinadi, horij davlatlarida esa prinsiplar soni o'zgarishi kuzatiladi. Xususan, Rossiya Federativiyasi jinoyat qonunining hudud bo'yicha amal qilishi asosan to'rtta prinsip bilan bog'liq bo'lib,

¹ <https://lex.uz/docs/-111453>.

² <https://lex.uz/docs/-111453>.

hududiylik prinspi, fuqarolik prinspi, real va universal prinsplar orqali klassifikatsiya qilinadi.

Amaliyotda jinoyat sodir etish joyini aniqlash boyicha bir qancha muammolar kelib chiqish holatlarini ko'rishimiz mumkun. Jinoyatni sodir etish vaqti va joyi o'ta chambarchas bog'langan bo'lib, ular faqat bitta shart-sharoitga asoslanib aniqlanishi kerak. Ushbu pozitsiyaning asoslanishiga quyidagi omillar kiritiladi: mantiq, sog'lom tafakkur va falsafiy nuqtai nazar.

Xulosa va taklif sifatida shularni keltirishim mumkinki, davlatimiz yurisdiksiyasining qamrov doirasidagi "ko'r nuqtalarni" bartaraf etish lozim. Bunday "ko'r nuqtalar" ayrim shaxslar tomonidan suiiste'mol qilinishi mumkin bo'lgan holatlar bilan bog'liq: ya'ni, agar shaxs O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligiga muvofiq jazolanishi lozim bo'lgan harakatni amalga oshirgan bo'lsa, u jazodan qutulish uchun ushbu harakat jinoyat deb e'tirof etilmagan boshqa davlat hududiga o'tib, uni transchegaraviy usulda sodir etishi mumkin, bunday jinoyatlar qatoriga JKdagi ko'pgina moddalarni keltirishimiz mumkun. Ch. Bekkariya yozganidek, agar insonda jinoyat jazosiz qoladigan biror joy yer yuzida mavjud emasligiga ishonch bo'lsa, bu jinoyatning oldini olishdagi eng samarali vosita bo'lar edi.³

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi.
2. <https://lex.uz/>.

³ Цит. по: Никольский Д.П. О выдаче преступников по началам международного права. Спб., 1884. С. 34.

3. Действие уголовного закона в пространстве по уголовным кодексам Стран-участниц содружества независимых государств.
Ю.А.Зюбанов.